MINTAQAVIY INNOVATSION KLASTERLAR TURLARI, SHAKLLARI VA TAMOYILLARI

Otayeva Dilfuza Zaripovna
Osiyo xalqaro universiteti 70410102 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647465

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari, shakllari va tamoyillarining zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va asosiy ustuvorliklari yoritilgan. Shuningdek, mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari, shakllari va tamoyillarini tadqiq qilish yuzasidan xulosa keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности и основные приоритеты типов, форм и принципов региональных инновационных кластеров. Также приводятся выводы по результатам исследования типов, форм и принципов региональных инновационных кластеров.*

Abstract. *This article discusses the need, existing opportunities and main priorities of the types, forms and principles of regional innovation clusters. It also draws conclusions on the study of the types, forms and principles of regional innovation clusters.*

Kalit so‘zlar. *Klaster, mintaqaviy innovatsion klaster, tur, shakl, tamoyil.*

Ключевые слова. *Кластер, региональный инновационный кластер, тип, форма, принцип.*

Key words. *Cluster, regional innovation cluster, type, form, principle.*

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish mamlakat va hududlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy unsur bo‘lib hisoblanadi. Innovatsiyalarni samarali joriy etish esa ko‘pincha alohida korxona doirasida emas, ya’ni ilmiy muassasalar, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim tashkilotlari va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Shu bois, so‘nggi yillarda mintaqaviy innovatsion klasterlar tushunchasi iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida muhim o‘rin egallaydi. Bu borada innovatsion xizmatlar turlarining ko‘payishi, uning rivoji mintaqada mavjud imkoniyatlar va shart-sharoitlar bilan birgalikda egzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi [1].

Ayniqsa, innovatsion klasterlar hududiy iqtisodiy tizimni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, yangi texnologiyalarni yaratish va ularni tijoratlashtirish uchun zarur bo‘ladi. Klaster modeli korxonalar va tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga imkon beradi. Bu borada klasterli iqtisodiy rivojlanish o‘ziga xos biznes vositasi bo‘lib qaraladi. Bozorga yo‘naltirilgan jamiyat o‘z iqtisodiy subyektlari uchun faoliyat qoidalarini qonunlar, munosabatlar, bank sektori, qo‘llab-quvvatlash institutlari va boshqalar orqali shakllantiradi [2].

Innovatsion klasterlar barqaror mintaqaviy rivojlanishni asoslaydi. Barqaror mintaqaviy rivojlanishni ta’minlash uchun ularning hududlarida bir nechta “asosiy” klasterlar yaratiladi [3]. Ushbu asoslar mavjud sanoat korxonalari, infratuzilma va logistika markazlari yoki o‘ziga xos tabiiy va geografik sharoitlar tomonidan shakllantiriladi. Bandlik statistikasi va klaster ichidagi iqtisodiy

subyektlar faoliyatini kuzatib borish uchun tizimli klaster xaritalash vositalari zarur. Shunisi muhimki, mintaqaviy innovatsion klaster ma'lum bir hududda joylashgan, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari, moliyaviy institutlar va davlat organlarining innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik tizimiga asoslanadi. Bu borada klaster tizimi ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, universitetlar va ta'lim muassasalari, innovatsion startaplar, moliyaviy tashkilotlar, davlat boshqaruv organlari hamda texnoparklar va biznes inkubatorlar kabi asosiy unsurlardan iborat bo'ladi. Ushbu tizim ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi hamda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Mintaqaviy innovatsiyaga yo'naltirilgan iqtisodiy klasterlar bozor mexanizmlarini faollashtirish va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy yechimlarni amalga oshirishda davlat ishtirokining potentsial afzalliklarini birlashtirgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda qatnashadi [4]. Unga asosan, mintaqalar ichidagi yetakchi sanoat tarmoqlariga asoslangan hududiy-sanoat klasterlarini shakllantirish xalqaro raqobatning kuchayishiga qarshi mudofaa chorasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki, innovatsion klaster ma'lum mahsulotlar va xizmatlar uchun barqaror bozor mavqeini ta'minlashga qaratilgan korxonalar guruhini, shuningdek, ularni rivojlantirish uchun resurslarni taqdim etadigan tegishli tuzilmalarni integratsiyalashni ifodalaydi. Bu borada mintaqaviy raqobatbardoshlikka erishish va uni saqlab qolishda klasterlarning roli tan olinganligi sababli jahon bo'ylab hukumatlar va mintaqaviy ma'muriyatlar rivojlanish resurslariga investitsiyalar kiritish orqali klasterlarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli siyosatni amalga oshiradilar.

Ixtisoslashgan taqsimlangan klasterlar ichidagi biznes subyektlari marketing, axborot va inson resurslari tizimlari orqali integratsiya qilinishi mumkin. Bu holatda mintaqaviy ta'lim muassasalari ayrim sohalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun resurs markazlari vazifasini bajaradi. Shularga asosan, mintaqaviy innovatsion klasterlar turlari turli parametrlar va ularning aloqalari yo'nalishi bo'yicha tasniflanadi:

- tarmoqlar ichida mintaqaviy cheklangan iqtisodiy faoliyat shakliga ega klasterlar. Bu borada ilmiy muassasalar (tadqiqot institutlari, universitetlar va boshqalar) bilan bog'liq.

- faoliyatning tor sohalarida vertikal ishlab chiqarish aloqalariga ega klasterlar. Bu bo'yicha bosh kompaniyalar yoki ishlab chiqarish, ta'minot va sotish jarayonlarini qamrab oluvchi asosiy korxonalar tarmog'i atrofida shakllanadi.

- yuqori darajadagi agregatsiyaga ega ("kimyoviy klaster") yoki undan yuqori darajadagi agregatsiyaga ega ("aerokosmik klaster") turli ishlab chiqarish turlaridagi sanoat klasterlari.

Ulardan tashqari, mintaqaviy innovatsion klasterlarning shakllari quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- "asosiy" klasterlar. Asosan, mavjud sanoat korxonalari, infratuzilma va logistika markazlari yoki o'ziga xos tabiiy-geografik shart-sharoitlar bo'lishi mumkin.

- tarqatilgan yoki qo'shnichilik klasterlari. Bular ishlab chiqarish kompaniyalarining bir-biriga nisbatan yaqinligi va tashqi iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bilan tavsiflanadi. Odatda, bu mavjud korxonalar yoki tashkilotlarning o'ziga xos ehtiyojlariga yo'naltirilgan seriyali ishlab chiqarishga asoslanadi.

Ammo, innovatsion klasterlarni yaratishning ba'zi tamoyillari korxonalarning vertikal integratsiyasi, yaqin hamkorlik aloqalari, yagona ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma, aniq ixtisoslashuv, hududiy konsentratsiya va yuqori darajadagi innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Fikrimizsa, innovatsion klasterlar turli mezonlar asosida tasniflanadi. Unga asosan, eng ko‘p qo‘llaniladigan tasnif iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi va rivojlanish darajasiga asoslanadi. Bu borada klasterlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- sanoat innovatsion klasterlari. Sanoat klasterlari ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltiriladi va yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi. Ushbu klasterlarda yirik sanoat korxonalari, ilmiy laboratoriyalar va texnologik markazlar faoliyat yuritadi. Masalan, avtomobil, kimyo va elektronika sanoati klasterlari shularga xos bo‘ladi. Bu borada sanoat klasterlari iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi.

- ilmiy-texnologik klasterlar. Bu klasterlar ilmiy tadqiqotlar va texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ular ilmiy institutlar va universitetlar atrofida shakllanadi. Ularga texnoparklar, innovatsion markazlar va startap ekotizimlari kabilar kiradi. Bunday klasterlar yangi texnologiyalar yaratish va ularni tijoratlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

- agrar innovatsion klasterlar. Agrar klasterlar qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu klasterlarda fermer xo‘jaliklari, qayta ishlash korxonalari va ilmiy markazlar hamkorlik qiladi. Uning asosiy yo‘nalishlariga agrotexnologiyalar, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash kabilar xos bo‘ladi. Agrar klasterlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

- xizmat ko‘rsatish klasterlari. Bu klasterlar xizmat ko‘rsatish sohasiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Jumladan, turizm klasterlari, logistika klasterlari va axborot texnologiyalari klasterlari shularga tegishli bo‘ladi. Ular hududiy iqtisodiyotning xizmat sektorini rivojlantirishga imkon beradi.

Shular bilan birgalikda, innovatsion klasterlar quyidagi keltirilgan shakllarda tashkil etiladi:

- hududiy klasterlar. Hududiy klasterlar ma’lum bir geografik hududda joylashgan korxonalar va tashkilotlar asosida shakllanadi. Ular hududning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi. Masalan, sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar shularga xos bo‘ladi.

- tarmoq klasterlari. Tarmoq klasterlari ma’lum bir iqtisodiy soha doirasida shakllanadi. Masalan, IT klaster, farmatsevtika klasteri va tekstil klasteri shularga xos bo‘ladi.

- innovatsion ekotizim klasterlari. Bu shaklda klasterlar ilmiy tadqiqotlar, startaplar va investitsiya muhitining birlashuvi orqali rivojlanadi. Mazkur klasterlar startap inkubatorlar, venchur fondlar va texnoparklar kabilarni o‘z ichiga oladi.

Biroq, mintaqaviy innovatsion klasterlar samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- hamkorlik tamoyili. Klaster ishtirokchilari o‘zaro hamkorlik asosida faoliyat yuritadi. Ilmiy muassasalar, biznes va davlat organlari birgalikda ishlaydi.

- innovatsion rivojlanish tamoyili. Klasterlarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalarni yaratish va ularni iqtisodiyotga joriy etish hisoblanadi.

- raqobatbardoshlik tamoyili. Klasterlar hududiy va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi.

- integratsiya tamoyili. Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya klaster tizimiga asoslanadi.

- barqaror rivojlanish tamoyili. Klasterlar uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratiladi.

Mintaqaviy innovatsion klasterlar - muayyan hududda joylashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkilotlari, infratuzilma subyektlari va davlat institutlarining o‘zaro

hamkorligi asosida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Bunday klasterlar hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Mintaqaviy innovatsion klasterlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Ushbu mintaqaviy innovatsion klasterlar tamoyillari hamkorlik, ixtisoslashuv, innovatsionlik, raqobatbardoshlik, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu tamoyillarga asoslangan holda klasterlarni rivojlantirish hudud iqtisodiyotining innovatsion salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulardan tashqari, innovatsion klasterlar hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ularning asosiy ijobiy ta'siri yangi ish o'rinlarini yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiradi, iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va hududiy infratuzilmani rivojlantiradi. Bu borada klasterlar innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mamlakat eksport salohiyatini oshiradi. Bu borada innovatsion klasterlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan texnoparklar, innovatsion markazlar va erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilmoqda. Masalan, IT Park innovatsion klasteri, tekstil klasterlari va agroklasterlar shularga xos bo'ladi. Ushbu klasterlar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Shularga asosan, innovatsion klasterlar o'z mezonlariga mos bo'lgan quyidagi turlarga ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

Innovatsion klasterlar mezonlariga mos bo'lgan turlari

Mezonlar	**Klaster turlari**			
Hayotiy sikl bosqichlari	Dastlabki	Ishlab chiqilgan	Yetuk	
Zamonaviy	Kuchli	Barqaror	Potensial	Yashirin
Iqtisodiy ahamiyati	O'sish	Kamayish	Barqaror	
Mahalliylashtirish chegaralari	Shahar	Mintaqaviy	Milliy	Xalqaro
Chuqurlik	Chuqur	Kichik	Noaniq chuqurlik	
Mutaxassislik	Sanoat	Innovatsiya	Xizmat ko'rsatish	
Yadro xarakteri	Markazlashtirilgan		Diffuziya	
Tashkiliy-iqtisodiy shakl	Tutish		An'anaviy	

Ushbu 1-jadvalda innovatsion klasterlarni turli mezonlar asosida tasniflash ko'rsatilgan. Unda klasterlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy ahamiyati, hududiy qamrovi, ixtisoslashuvi va tashkiliy xususiyatlari kabi jihatlar ifodalanadi. Mazkur tasnif innovatsion klasterlarning rivojlanish darajasi, iqtisodiy ta'siri, hududiy qamrovi va tashkil etilish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa davlat va biznes uchun klaster siyosatini ishlab chiqish, investitsiyalarni samarali yo'naltirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Fikrimizcha, mintaqaviy innovatsion klasterlar hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish zarur bo'ladi. Ular muayyan hududda joylashgan korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim

tashkilotlari, davlat institutlari va infratuzilma subyektlarining o‘zaro hamkorligi asosida shakllanadi. Bu borada mintaqaviy innovatsion klasterlarning samarali faoliyat yuritishi ularning turlari, tashkiliy-iqtisodiy shakllari va rivojlanish tamoyillari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka asoslanadi. Klasterlar turlari ularning iqtisodiy yo‘nalishi, rivojlanish darajasi va hududiy qamroviga qarab shakllanadi. Masalan, sanoat, innovatsiya va xizmat ko‘rsatish klasterlari muayyan tarmoqlarda faoliyat yuritadi. Klasterlar hayotiy sikl bosqichiga ko‘ra dastlabki, rivojlangan va yetuk bosqichlarda bo‘lishi mumkin. Ushbu turlar klaster faoliyatining mazmunini belgilab beradi va uning rivojlanish istiqbolini aniqlaydi.

Klasterlar shakllari esa ularning tashkiliy tuzilishi va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, markazlashtirilgan klasterlarda faoliyat asosan yirik korxona yoki ilmiy markaz atrofida shakllanadi, diffuziya shaklidagi klasterlarda esa ishtirokchilar o‘rtasidagi hamkorlik nisbatan teng va tarmoqli tizimga ega bo‘ladi. Shuningdek, klasterlar an’anaviy yoki innovatsion shakllarda namoyon bo‘ladi. Klasterlar tamoyillari esa ularni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy qoidalarini belgilaydi. Bularga hamkorlik va integratsiya, ixtisoslashuv, innovatsionlik, raqobatbardoshlik, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash hamda barqaror rivojlanish kabi tamoyillar kiradi. Ushbu tamoyillar klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi va innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, mintaqaviy innovatsion klasterlar zamonaviy iqtisodiyotning muhim rivojlanish mexanizmlaridan biridir. Ular ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlab, innovatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion klasterlarning turli turlari, shakllari va tamoyillari hududiy iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shunga asosan, kelajakda innovatsion klasterlarni rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi yanada oshishi mumkin. Bu borada mintaqaviy innovatsion klasterlarning turlari, shakllari va tamoyillari o‘rtasidagi bog‘liqlik shundaki, klasterning turi uning tashkiliy shakli va rivojlanish tamoyillarini belgilab beradi. Masalan, innovatsiyaga ixtisoslashgan klasterlarda ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar transferi asosiy o‘rin tutadi, shuning uchun hamkorlik va innovatsionlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cho‘ponov S.O. Mintaqada innovatsion xizmatlar turlari rivojlanishining egzogen va endogen omillari, ular tasnifi va ko‘rsatkichlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 2021. - 139 b.
2. Рахимов З.Г. Функционирование и развитие экономики региона на основе формирования инновационного кластера (на примере возможного развития специальной индустриальной зоны «Ангрен»). // Иқтисод ва молия, 2013, 7. - с. 5.
3. Воронов А.С. К вопросу о типах региональных инновационных кластеров. // Экономика, статистика и информатика, №3, 2016. - с. 18.
4. Агафонов В.А. Региональные инновационные кластеры. // Региональная экономика и управление. Электронный научный журнал, №3 (43). - с. 1-2. Дата публикации: 15.07.2015. Режим доступа: https://eee-region.ru/article/4301/